

ULUG'BEK VA UNING ILMIY MAK TABI

Ergashev Ozodbek Musurmon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998904184820

e – pochta: ergashevozodbek4820@gmail.com

Annotatsiya: *Ulug'bek yashab ijod etgan davr XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmi nafaqat Movarounnahr, balki dunyo tarixidagi muhim bir palla edi. Biroq Movarounnahr, Xuroson va boshqa qo'shni Sharq mamlakatlarining o'sha davrdagi tarixi ko'p jihatdan Ulug'bekning bobosi Temurning faoliyati bilan bog'liq edi.*

Kalit so'zlar: *Ulug'bek, Abdurazzoq Samarcandiy, Taftazoniy, Mavlono Ahmad, Qozizoda, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Samarcand madrasasi, Rasadxona, Ali Qushchi, "Ziji Ko'ragoniy"*

KIRISH

Ulug'bek Samarcandda hokim bo'lishi bilan, olimlarni, shoir va me'morlarni to'playdi. Lekin bundan ilm-ma'rifat faqat Samarcandda bo'lgan, degan xulosa kelib chiqmaydi. O'sha davrning yetuk olimi Abdurazzoq Samarcandiyning aytishicha, Samarcand bilan bir qatorda Hirot ham Ulug'bek va Shohruh davrida Sharqning yirik madaniyat markaziga aylanadi. Albatta, bunda eng avvalo Ulug'bekning xizmati beqiyos kattadir. U o'z davrining yetuk olimlaridan biri bo'lib yetishdi. Ulug'bek hokimligi davridagi taraqqiyat yangiliklar butun o'rta asr ma'daniyati tarixida o'lkan ahamiyat kasb etadi. U qadimgi yunon olimlaridan Platon (Aflatun), Aristotel (Arastu), Gippart (Ibarxus) va Ptolemy (Batlimus)larning asarlarini va o'z vatandoshlaridan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy va Nasiriddin Tusiy larning asarlarini tahlil qilgan edi. Rus akademigi V.V.Bartoldning aytishicha "islom olamida Ulug'bekkacha hech bir podshoh olim bo'lmagan". Tarixda ko'p musulmon hokimlari olimlarga homiylik qilib, ularning ilmiy izlanishlariga sharoitlar yaratib bergenligi ma'lum. Biroq, ularning barchasidan farqli o'laroq, Ulug'bekning o'zi jiddiy astronom va matematik bo'lib, o'z atrofidagi olimlar bilan hamkorlikda ijod etgan.

Ulug'bek Movarounnahrni butun musulmon mamlakatlarining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. Samarcanddagi madrasaga Ulug'bek tez orada mudarris va olimlarni to'play boshlaydi va shu tariqa uning Samarcandda astronomik ilmiy maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmni davom ettirishlariga to'la sharoit mavjudligi uchun Temur davridayoq Samarcandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizodaning maslahati bilan Ulug'bek otasining mulki Xurosonning Koshon shahridan G'iyosiddin Jamshid Koshiyni keltiradi. Samarcandga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosandan to'plangan olimlarning soni 1417-yilga kelib 100 dan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarixlar, xattotlar, musavvirlar, geograflar bor edi. Lekin astronomiya va matematika sohasidagi olimlar sharafliroq va obro'liroq edi. Ular orasida Qozizoda bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.

Mirzo Ulug‘bek temuriyzodalar ichida fan va madaniyat taraqqiyotiga eng ko‘p va salmoqli hissa qo‘sghan hukmdordir. U Samarqandda birinchi falakkiyotshunoslik akademiyasiga asos solgan siymo sifatida dunyoga nom taratadi. Bu so‘zlar rivoyat yoki afsona emas, balki jahonning ulug‘ allomalari tomonidan tan olingan haqiqatdir. Ulug‘bek akademiyasini tan olgan va dunyoga taratgan kishi bu - fransuz yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi Volter (1694-1778)dir. Bo‘riboy Ahmedov o‘zining “Ulug‘bek” kitobida Volterning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Transoksanada uning o‘rniga taxtga chiqqan mashhur Ulug‘bek Samarqandda birinchi akademiyasiga asos soldi, yer kurrasini o‘lchashni buyurdi va falakkiyotshunoslik jadvallarini tuzishda ishtirok etdi”.⁸

Chindan ham Ulug‘bek tomonidan qurdirgan rasadxona o‘z davrining akademiyasi bo‘lgan. Tarixchi olim, professor G.A.Hidoyatov bu haqda haq gapni aytgan: “Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek rasadxonasi ulkan madaniy yutuq bo‘lgan ediki, jihizi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona o‘sha davrda ham, undan ancha keyin ham yaratilmadi. Rasadxona 1018 ta yulduz tasvirlangan katalog tuzildi, yulduzlarning belgisi o‘ndan to‘qqizgacha aniq bo‘lgan turish burchaklari sinuslari va tangenslari notarial qiymatlarining jadvallari, shuningdek yer hududidagi ko‘p sonli nuqtalar koordinatalari (kenglik va uzunlik)ni qamrab olgan jadvallar ishlab chiqildi rasadxonada Ulug‘bekning bevosita raxbarligida o‘tkazilgan ishlar uning matematika, geometriya va falakkiyotshunoslik sohasida chuqur bilimlar sohibi ekanligidan guvohlik berar hamda bir qancha amaliy vazifalar yechimi uchun katta ahamiyat kasb etardi”.

1420-yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishida bo‘ladi. Vasifiyning aytishicha, birinchi mudarris etib Mavlono Havofiy tayinlanadi. Madrasa bitishiga yaqin qurilishda ishlayotganlar Ulug‘bekdan kim mudarris etib tayinlanadi deb so‘raydilar. Ulug‘bek javobida bu lavozimga barcha ilmlardan xabardor odamni topajagini aytadi. Shu yerda g‘ishtlar orasida iflos kiyimda o‘tirgan Mavlono Muhammad Ulug‘bekning so‘zlarini eshitib, shu mansabga o‘zi munosibligini aytadi. Ulug‘bek unga savollar berib qoniqarli javob olganidan so‘ng, uning bilimlaridan qanoat hosil qiladi va uni hammomga olib borib cho‘miltirish va yaxshi kiyimlar kiyintirilishini buyuradi. Madrasa ochilishida Mavlono Muhammad mudarris sifatida birinchi ma’ruzasini o‘qiydi. Bunda 90 ta olim hozir bo‘lgan bo‘lsa ham ma’ruzani faqat Ulug‘bek bilan Qozizoda Rumi tushunadilar. Lekin asosiy ma’ruzalarni Qozizoda Rumi, Ulug‘bek, Jamshid Koshiy va keyinroq Ali Qushchilar o‘qiydilar.

Ulug‘bek tashkil qilgan Samarqand madrasasi va ilmiy to‘garagi sharq madaniyati va fani tarixida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu yerda ko‘plab buyuk siymolar shakllandi. Jumladan, Xurosonning (Eron) Jom shaxrida 1414-yili tug‘ilgan bo‘lajak ulkan shoir Jomiy Ulug‘bekning Samarqand madrasasida tahsil ko‘radi. U bu yerda Qozizoda Rumi, Ulug‘bek va Ali Qushchi kabi ulkan o‘zbek

olimlarining ma’ruzalarini tinglaydi, ularning tarbiyasida bo‘ladi. Shu tariqa o‘zbek olimlari Jomiyni shoir sifatida voyaga yetkazadilar.

⁸ Ahmedov B. “Ulug‘bek” T.: 1989. 112 b.

Rasadxona qurilishi 1420-yildan 1429-yilgacha davom etadi. Ulug‘bek rasadxonani loyihalash va qurishda ham o‘zi bevosita ishtirok etadi. U davlat ishlarini bajarish bilan birga madrasada ham ma’ruzalar o‘qiydi. Odad bo‘yicha u haftada bir marta astronomiya yoki matematikadan ma’ruza o‘qirdi. Uning chuqur bilimi, isbotlarining dalillarga asoslanganligi, mahorati va shu fanlarga muhabbatni tinglovchilarni hayratlantirdi.

Bundan tashqari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchilar bilan bir qatorda ustod Ismoil mavlono Ibrohim, Mavlono Bahriiddin va boshqa olimlar ham ma’ruzalar o‘qirdilar.

Samarqand akademiyasi olimlari davrida eng taniqli va obro‘lisi Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Qozizoda ar-Rumiy edi. Mashxur riyoziyotchi va astronom deb sanalgan bu olim faylasuf sifatida ham yurtga yaxshi tanilgan bo‘lib, uni “Aflatuni zamon” deb atashgan.

Ulug‘bekning matematika va astronomiya sohasida birinchi ustozlaridan hisoblangan Rumiy Kichik Osiyoning ya’ni Rumming Burs shahrida 1360-yillarda qozi oilasida dunyoga kelgan. O‘z yurtida astronomiya va matematikadan yetarlicha keng bilimga erishgan Rumiy Xurosondalik kezlarida markazi Samarqand bo‘lgan Mavarounnahrda matematikaning rivojlanganligi haqida eshitib Samarqandga yo‘l oladi. Mashxur “Asar al-Boqiya”ning muallifi Solih Zokiyning ma’lum qilishicha, Rumiy Samarqandga XIV asrning oxirgi o‘n yilligiga kelgan.

Qozizoda Rumiy Samarqandga Ulug‘bekning bobosi Temur saroyida astronom bo‘lib ishlagan mavlono Ahmaddan dars olib, o‘zining ilmu nujum bo‘yicha oldindan erishgan bilimlarini to‘ldirgan. Hijriy yil hisobi bilan 808yil (1405-1406 yillar)da “Ajab al-mandurfi axbari Temur” (Temur haqida qiziqarli xabarlar) kitobining muallifi Ibn Arabshoxga o‘zi tuzgan va sayyoralarning holatlarini aks qilgan 200ta jadvali haqida yozgani ma’lum.

Rumiyning “Sharh al-chag‘miniy”dan tashqari “Al-majistiyning bayoniga sharh”, “Astronomiya fani haqida risola”, “Sinus-kvadrant haqida risola”, “Astronomiya va geometriya haqida risola”, “Arifmetika haqida risola” kabi asarlari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, bu asarlarning ko‘pchiligi Istambul, Berlin, London, Tehron va Lelingrad kutubxonalarida hozirgacha saqlanadi. M.E.Masson Qozizoda Rumiyning vafoti 1430-yillarda ro‘y bergen deb taxmin qiladi. Ayrim manbalar Rumiy 1437-yilda vafot etgan deb ma’lum qiladi.

Samarqand akademiyasining ikkinchi buyuk allomasi G‘iyosiddin Jamshid ibn Ma’sud ibn Mahmud al-Koshiy bo‘lib, u Koshon (Eron)da tug‘ilgan. Bu o‘lka Temur tomonidan 1387-yilda zabit etilgan edi. G‘iyosiddin Jamshid Samarqandga Koshondan tashrif buyurgan. Koshonda yaxshi ta’lim olib, Iroqning ko‘p shaharlarini kezgan va Samarqandga kelgunga qadar riyoziyat va astronomiyadan yetarlicha ma’lumotga erishgani, uning bu sohalar bo‘yicha yozgan asarlaridan ma’lum bo‘ladi. 1408-1410 yillarda ro‘y bergen oy tutilishlarini kuzatib, ularning tafsilotlari olimning Shohruhga bag‘ishlab 1414-yilda bitgan. “Ziji Haqoniy”dan taklim “Ziji Elxoniy” asarida keltirilgan. Shundan sharqshunos akademik Bartold, Koshiy Hirotda Shoxruhning saroyida ham ishlagan bo‘lsa kerak, deb tahmin qiladi. Mazkur oy tutilishlarining haqiqatdan ro‘y bergenligini nemis astronomi T.Oppolserning “Tutilishlar kanoni” (1887-yili chop etilgan) kitobi tasdiqlaydi.

Mashhur sharqshunos olimlar A.P.Yushkevich va B.A.Rozenfeldlar Ulug‘bek maktabi olimlarining hayoti va faoliyatini o‘rganib, Jamshid Koshiy haqida ushbu so‘zlarni bitganlar: “Jamshid al-Koshiyning Samarcandga kelgunga qadar kechgan butun faoliyati, go‘yo yangi Ulug‘bek rasadxonasi aynan raxbarlik uchun maxsus tayyorgarlik maktabini o‘tagandek edi va shuning uchun ham Ulug‘bek tomonidan uni Samarcandga taklif etilishi ayni muddao bo‘ldi”.⁹

Koshiyning Samarcand rasadxonasida o‘tkazgan astronomik kuzatishlari

“Ziji Ko‘ragoniy”dan joy olgan jadvallar, kuzatish natijalarida aks qilgandan tashqari, astronomiya va matematikada e’lon qilgan 19 ta risolasining mazmunidan ham o‘rin olgan. Bu asarlarning ro‘yxati G.P.Matviyevskaya va B.A.Rozenfeldlarning “Matematiki i astronomi muslimanskogo srednevekovya” kitobida keltirilgan. Bu asarlar ichida “Arifmetikaga kalit”, “Bir gradus sinusining aniqlash haqida risola”, Shohruhgaga bag‘ishlangan “Haqon zijining Elxon zijining takomillashganidir”, “Koshiy ziji”, “Astronomiya haqida risola”, “Astronomiya fanining qisqacha bayoni” risolalari uning nomini jahonga tanitdi.

G‘iyosiddin Koshiyning vafot etgan yili aniq emas. Sharqshunos X.Zuter (1848-1922) o‘zining “Арабские математики и астрономи и их труды” maqolasida Koshiyning o‘limi 1437-yilda ro‘y bergen deb taxmin qiladi.

Sharqshunos B.Rozenfeld Koshiy 1429-yilda vafot qilgan deb yozadi. Astronom G‘.Jalolov esa nemis olimi sharqshunos Brokkelman fikriga qo‘silib, Koshiy 1440-yilning boshida olamdan o‘tgan, deb ma’lum qiladi.

Ma’lumki Koshiyning vafotidan so‘ng ko‘p o‘tmay Qozizoda Rumiy ham vafot etadi. Shunday so‘ng Ulug‘bek rasadxona boshlig‘i qilib Ali Qushchini tayinlaydi.

U haqida “Ziji Ko‘ragoniy”ning so‘zboshisida shunday so‘zlar yozilgan: “Yoshlikning gullagan va navqiron davrini o‘tayotgan Ali ibn Muhammad al-Qushchi fan va bilimning jang maydonida xuddi qilichdek o‘tkir, uning ilmiy ishlariga raxbarlik qila olishiga ishonch shu qadar kuchliki, u haqda gapirib, Ali Qushchining shuhrati, yaqin vaqt ichida, o‘z mamlakatimiz va dunyoning boshqa qismlari bo‘ylab keng taraladi, deb bemalol aytish mumkin”.¹⁰

Olimning to‘la ismi sharifi Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi bo‘lgan. Ali Qushchi taxminan 1402-yilda Samarcandda tug‘ilib, yoshligida Ulug‘bekning tarbiyasida bo‘lgan va unda astronomiyaga qiziqish uyg‘otishda ustozining roli katta bo‘lgan. Ali ibn Muhammadga “Qushchi” taxallus berilishining boisi dastlab u saroyda ovchi (burgut ovlovchi) lavozimida ishlaganidan deb ma’lum qiladi tarixiy manbalar. Ulug‘bek uni o‘ziga yaqin olib “o‘g‘lim”deb atagan. Astronomiyaga katta qiziqish bildirib, rasadxonada ishlay boshlagach, vaqt o‘tishi bilan u Ulug‘bekning ilmiy hamkoridan yaqin do‘stiga aylangan. Karmanada qo‘sishimcha ta’lim olib qaytgach, o‘z ichiga sadoqat bilan kirishib Ulug‘bekning ishonchli shogirdi va yordamchisi bo‘lib qolgan. Astronomik kuzatishlarga mohirligi va

⁹ Mamadazimov Mamadmuso. “Ulug‘bek va uning rasadxonasi”. T.:1994y. 73 b.

¹⁰ Mamadazimov Mamadmuso. “Ulug‘bek va uning rasadxonasi”. T.:1994y. 73 b.

chuqur bilimi evaziga “o‘z davrining Bitlimusi” (Ptolemy) degan taxallus olgan. Ali Qushchi “Astronomiya ilmi haqida risola”, “Geometrik masalalar va astronomiya”, “Ulug‘bek Zijiga sharh”, “Samo pog‘onalari”, “Astronomiyadan bosh xulosa kabi astronomik va turk sultonı Muhammad Aliga bag‘ishlangan “Arifmetikadan Muhammad risolasi”, “Hisob (arifmetika ilmi haqida risola), “Arifmetikaning qaymog‘i”, “Geometriya haqida risola”, “Arifmetik qoidalar va geometriya haqida ko‘rsatmalar risolasi” kabi matematik asarlarning va “Xitoynoma” deyiluvchi tarixiy asarning muallifidir. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy Koshondan Samarqandga taklif etilgan yana bir astronom haqida yozadi. Uning nomi Mo‘yiddin bo‘lib, Ulug‘bek tomonidan rasadxonaga ishga taklif etilgunga qadar astronom – olim sifatida Sharqqa tanilgan Abdurazzoq Samarqandiyning ta’rifi bilan aytganda, “mavlonoi muazzam” o‘zidan so‘ng astronomik muktabni meros qilib qoldirgan edi.

Jumladan, uning o‘g‘li Mansur ham astronom bo‘lib, boshqa ko‘p asarlari bilan birga taniqli olim, Chag‘miniyning “Mulaxxas”iga Qozizoda Rumiy tomonidan bitilgan “Sharh al-Mullaxas”ga tavsif yozgan Nizomiddin Abdal Ali ibn Muhammad ibn al Husayn al-Birjondiy uning shogirdi hisoblanadi.

Biroq na “Ziji Ko‘ragoniy”ning so‘zboshisida va na Samarqand rasadxonasi tarixi haqidagi boshqa manbalarda Koshonlik Mo‘yiddin va uning o‘g‘li Mansur haqidagi to‘laroq ma’lumot uchraydi.¹¹

Ulug‘bek astronomiya muktabining so‘ngi vakillaridan biri, Qozizoda Rumiyning (otasi tomonidan) va Ali Qushchining (onasi tomonidan) nabirasi Mahmud ibn Muhammad ibn Qozizoda Rumiy edi. Tarixda Mirim Chalabiy nomi bilan tanilgan bu astronom Samarqandda tug‘ilib o‘sdi. Biroq umrining so‘ngi yillarini Turkiyaning Guliopol, Adrianopol va Bursada o‘tkazdi. 1525-yilda Adrianopolda vafot etdi. Uning “Ulug‘bek Zijiga sharh”, “Qiblaning azimutini aniqlash to‘g‘risida risola”, “Sinus kvadrant haqida umumiyyatli risola”lari sulton Boyazidga bag‘ishlab yozilgan. Mirim Chalabiyning “Almugantaratli kvadrant haqida risola”, At-Tusiyning Elxon Zijiga sharh”, “Shikoziy kvadrantidan (asturlabidan) foydalanishini o‘rganish haqida risola”, “Kvadrant haqida umumiyyatli risola”, “Zarqaliy asturlabi haqida risola” kabi ilmiy merosi bilan o‘rtasidagi astronomiya tarixida chuqur iz qoldirgan.

Xullas, Ulug‘bek tashkil qilgan Samarqand akademiyasi va ilmiy to‘garagi Sharq madaniyati va fani tarixida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi va bu turli xalqlarning madaniy, ilmiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

¹¹ Ahmedov A. “Ulug‘bek hayoti va faoliyati” T.: 1991.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedov B. Ulug‘bek. T.: “Fan”, 1991 y.
2. Ahmedov B. Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994 y.
3. Ahmedov B. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. T.: “O‘qituvchi”, 1996 y.
4. Ashrafiy Muqaddima.Temur va Ulug`bek davri Samarqand miniatyurasi.T.: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va sa`nat nashriyoti, 1996 y
5. Mamadazimov M. Ulug‘bek va uning rasadxonasi. T.: “O‘zbekiston”, 1994 y.
6. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. Bosh muharrir: Ahmadali Asqarov. T.: “Meros”, 1996 y.
7. www.ziyouz.com
8. www.google.ru
9. www.ref.uz
10. www.ziyouz.com